

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Shoimov Norqobil Bobomurodovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar va ularning huquqiy asoslarining ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaning oldini olish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi samarali ta'lim, jamoatchilik nazorati, manfaatlar to'qnashuvi.

**Annotatsiya:** V statye podcherkivayetsya vajnost shirokomasshtabnix mer i ix pravovaya osnova v sfere borbi s korrupsiyey v Respublike Uzbekistan.

**Klyucheviy slova:** korrupsiya, predotvrasheniye korrupsii, sifrovizatsiya gosudarstvennix uslug, effektivnoye antikorrupsionnoye obrazovaniye, obshestvenniy kontrol, konflikt interesov.

*O'zini "ko'cha" deb ataydigan jinoiy guruhlar bo'ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdor shaxslar bo'ladimi, kim qonunga bepisand qarab, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo'lsa, biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz.*

**Shavkat Mirziyoyev.**

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda O'zbekiston islohotlarining asosiy hujjati hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining<sup>1</sup> ahamiyati katta.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

<sup>1</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024 y., 06/24/221/0003-son.

strategiyasining Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish deb nomlangan birinchi ustuvor yo'nalishining 10-maqsadida davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan bo'lsa, uning Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish deb nomlangan oltinchi ustuvor yo'nalishining 83-maqsadida davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkларini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, 84-maqsadida esa, korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish o'z aksini topgan bo'lib, bunda korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish, aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish hamda normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash muhim maqsadlardan etib belgilangan<sup>1</sup>.

Shu maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasida quyidagi bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan va amalga oshirilmoqda:

*birinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoniga<sup>2</sup> muvofiq, 2020-yilning 29-iyunida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi hisoblangan korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi va uning asosiy maqsad va vazifalari belgilab berildi;

*ikkinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> Norqobil Shoimov. Korrupsiyaga qarshi kurashning ba'zi jihatlari // O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Axborotnomasi, 2024-yil 3-son. 27-28-betlar.

<sup>2</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 06/20/6013/1002-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son; 29.11.2022-y., 06/22/257/1049-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son.

*to'g'risida"gi* PF-6247-son Farmoniga<sup>3</sup> asosan davlat organlari va muassasalarda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash choralari ko'rilmogda hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik darajasini yanada oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» ishlab chiqildi;

*uchinchidan*, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, hujjatlarni qog'oz shaklidan elektron shakliga to'liq o'tkazish hamda ortiqcha ovoragarchiliklarni oldini olish maqsadida davlat organlari faoliyati va ular tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini raqamlashtirishning qamrovini yanada kengaytirish maqsadida davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirishga e'tibor berilmogda;

*to'rtinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi *“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi* PF-200-son Farmoniga<sup>1</sup> asosan korrupsiyaga qarshi samarali ta'lim va jamoatchilikni jalb qilish ishlari olib borilmogda;

*beshinchidan*, Toshkentda O'zbekiston Prezidenti va Qatar amiri korrupsiyaga qarshi kurashni ifodalovchi «Qo'l ko'rinishida kompozitsiya halollik, pok amal va niyatlarni, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni, dunyoning barcha mamlakatlarini unga qarshi kurashishda birlashishga chaqiriqni anglatuvchi» — monumentini ochib berdi;

*oltinchidan*, mamlakatda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va «yashirin iqtisodiyot»ni qisqartirish choralari ko'rilmogda hamda «Korrupsiyasiz soha» loyihalari va boshqa shu kabi choralar amalga oshirilmogda.

Bulardan tashqari, 2017-yilning 3-yanvar kuni korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarliligi masalalarini tartibga solishda ahamiyati katta bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilgan O'zbekiston

<sup>3</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021-y., 06/21/6247/0563-son, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-son, 15.06.2022-y., 06/22/154/0524-son; 28.11.2023-y., 06/23/200/0896-son; 20.01.2024-y., 06/24/14/0052-son, 27.04.2024-y., 06/24/67/0307-son.

<sup>1</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2023-y., 06/23/200/0896-son.

Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’RQ-419-sonli qonun<sup>2</sup> qabul qilindi.

Albatta, amalga oshirilayotgan ishlar ko’lami maqtovga loyiq, biroq, hali o’z yechimini kutayotgan masalalar ham yo’q emas. Misol uchun, 2024-yil 22-avgust kuni Toshkent shahar korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi yig’ilishi bo’lib o’tgan.

Unda Toshkent shahar prokurori birinchi o’rinbosarining poytaxtda mansabdorlik va korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurash borasida olib borilayotgan nazorat tadbirlari haqidagi hisoboti tinglangan.

Xususan, poytaxt prokuraturasi organlarida 2024-yil 7 oyi mobaynida 217 nafar mansabdor shaxs va fuqarolar tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etganligi yuzasidan 185 ta jinoyat ishi tergov qilingan.

Ular asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organlari, oliy, xalq ta’limi va maktabgacha ta’lim, sog’liqni saqlash, bandlik, moliya, soliq, energetika, bank, hokimlik xodimlari, kadastr xizmati va ekologiya idoralarning mas’ul hamda mansabdor shaxslari hissasiga to’g’ri kelgan.

Korrupsiya holatlarini fosh etish va aybdor shaxslarga jazo muqarrarligini ta’minlash borasida, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda 81 ta tezkor tadbirlar o’tkazilib, barchasi bo’yicha jinoyat ishi qo’zg’atilgan. Jinoyat ishlari tergov doirasida 93 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan<sup>1</sup>.

Qayd etilgan va boshqa chora-tadbirlar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilashga xizmat qildi. Buni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o’rni yaxshilangani ham tasdiqlaydi. Xalqaro boshqaruv ko’rsatkichlariga ko’ra, O’zbekiston so’nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashni yaxshilagan. So’nggi yillarda mamlakatimiz Transparency International’s Corruption Perceptions Index (CPI) reytingida o’z o’rnini 42 pog’onaga yaxshilagan. Birgina 2023-yilning o’zida mamlakat o’z reytingini 5 pog’onaga yaxshiladi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya har qanday jamiyatning rivojlanishiga to’siq bo’lib, uning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun davlat, jamiyat va fuqarolarning hamjihatligi talab etiladi. Samarali qonunchilik, ochiqlik, ta’lim va jamoatchilik ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish choralari muvaffaqiyatli natijalarga olib kelishi mumkin.

---

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonunchilik ma’lumotlari миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон; 05.06.2024 й., 03/24/931/0402-сон.

<sup>1</sup> <https://kun.uz/kr/news/2024/08/23/toshkentda-korrupsiyaviy-jinoyat-sodir-etgan-mansabdorlar-asosan-qaysi-idoralarda-ishlagani-aytili>.